



Xorazm viloyati statistika boshqarmasi



**QISHLOQ, O'RMON VA BALIQCHILIK
XO'JALIGI
2023- YIL YANVAR-SENTABR OYLARI
(dastlabki ma'lumot)**






2023- yilning yanvar-sentabr oylarida

Xorazm viloyatining

qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2023- yilning yanvar-sentabr oylarida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)larining umumiyl hajmi 19 279,9 mlrd so'mni shu jumladan, dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va ushbu sohalarda ko'rsatilgan xizmatlar 18 801,1 mlrd so'mni, o'rmon xo'jaligi – 156,2 mlrd so'mni, baliqchilik xo'jaligi – 322,6 mlrd so'mni tashkil qildi.

Dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik
va ushbu sohalarda ko'rsatilgan xizmatlar



Xorazm viloyatining ning qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)lari hajmining o'sish sur'ati

01

Dehqonchilik va chovachilik, ovchilik va ushbu sohalarda ko'rsatilgan xizmatlar – **106,5%**

02

O'rmon xo'jaligi – **101,2%**

03

Baliqchilik xo'jaligi – **101,4%**

2023- yilning yanvar-sentabr oylarida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)larining o'sish sur'ati o'tgan yilning mos davri bilan solishtirganda 106,3 %ni, shu jumladan, dehqonchilik va chovachilik, ovchilik va ushbu sohalarda ko'rsatilgan xizmatlar – 106,5 %ni, o'rmon xo'jaligi – 101,2 %ni, baliqchilik xo'jaligi – 101,4 %ni tashkil qildi.



Ma'lumot uchun:

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2023- yilning yanvar-sentabr oylarida tarmoqning ijobiy o'sish sur'atiga asosan quyidagi mahsulotlarning 2022- yilning mos davriga nisbatan yuqori o'sish sur'ati qayd etilganligi orqali erishildi:


| | |
|-------------------------|-----------|
| ✓ Paxta | — 154,6 % |
| ✓ Pilla | — 107,0 % |
| ✓ Jami don | — 106,7 % |
| ✓ Go'sht (tirik vaznda) | — 106,1 % |
| ✓ Asal | — 105,5 % |



Poliz

Xorazm viloyatining qishloq, o'rmon
va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)lari
umumi hajmining taqsimlanishi, %da


Dehqonchilikva
chorvachilik, ovchilik
va ushbu sohalarda
ko'rsatilgan xizmatlar




2023- yilning yanvar-sentabr oylari yakunlariga ko'ra, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)lari umumi hajmining 97,5 %i – dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va ushbu sohalarda ko'rsatilgan xizmatlari (2022- yilning yanvar-iyun oylarida 97,1 %), 0,8 %i – o'rmon xo'jaligi (0,9 %), 1,7 %i – baliqchilik xo'jaligi (2,0 %) hissasiga to'g'ri keldi.



Hududlar kesimida qishloq, o'rmon va baliqchilik
xo'jaligi mahsulot (xizmat)larining



2023- yilning yanvar-sentabr oylarida hududlar kesimida qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat)larining eng yuqori hajmi Urganch (2348,9 mlrd so‘m), Qo‘siko‘pir (2046,8 mlrd so‘m) va Bog‘ot (1945,1 mlrd so‘m) tumanlarida qayd etildi.



Aksincha, kam hajmga ega hududlarga Xiva shahrini (57,4 mlrd so‘m), Urganch shahrini (437,6 mlrd so‘m) hamda Tuproqqal‘a tumanini (468,1 mlrd so‘m) keltirib o‘tish mumkin.




Ma'lumot uchun:

2023-yilning yanvar-sentabr oylarida Urganch, Qo'shko'pir va Bog'ot tumanlari qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)larining umumiylajimi bo'yicha viloyatda yetakchi o'rnlarni egallashi, mazkur hududlarning go'sht, sut, tuxum, don, sabzavot kabi qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirishda hududlar orasida yuqori ulushga ega bo'lganligi bilan izohlanadi.

Aksincha, go'sht, sut, tuxum, sabzavot kabi qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirishda hududlar orasida Xiva, Urganch shaharlari va Tuproqqa'l'a tumani kam ulushga ega ekanligini qayd etish lozim.





**Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)lari umumiylajimi
hududlar kesimida taqsimlanishi, %da**





Viloyatda qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)larining umumiy hajmida eng yuqori va eng kam ulishga ega hududlar



Yuqori o'sish sur'atlari Gurlan (111,5 %), Qo'shko'pir (110,2 %) va Tuproqqa'l'a (107,6 %), tumanlarida qayd etildi.



**Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi
mahsulot (xizmat)larining umumi hajmida
kichik biznes va xususiy tadbirkorlik**

| | <i>Hajmi mlrd so'm</i> | <i>O'sish sur'ati, %da</i> | <i>Jamiga nisbatan ulushi, %da</i> |
|------------------------|----------------------------|------------------------------------|--|
| Xorazm viloyati | 19064,0 | 105,8 | 98,9 |
| Urganch sh | 430,5 | 100,3 | 98,4 |
| Xiva sh | 57,2 | 101,2 | 99,7 |
| Bog'ot | 1897,3 | 104,3 | 97,5 |
| Gurlan | 1871,4 | 111,5 | 99,9 |
| Qo'shko'pir | 2020,1 | 110,3 | 98,7 |
| Urganch | 2329,8 | 102,7 | 99,2 |
| Hazorasp | 1842,9 | 102,8 | 99,7 |
| Tuproqqal'a | 468,1 | 118,2 | 100,0 |
| Xonqa | 1860,7 | 103,9 | 98,6 |
| Xiva | 1501,6 | 103,9 | 99,5 |
| Shovot | 1530,8 | 103,7 | 99,1 |
| Yangiariq | 1589,1 | 104,2 | 96,7 |
| Yangibozor | 1664,5 | 109,9 | 99,7 |

Viloyatning qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)larining umumi hajmida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning ulushi 98,9 % ni tashkil etdi. Ushbu ko'rsatkichni hududlar bo'yicha tahlil qilar ekanmiz, jami tarmoqqa nisbatan kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning yuqori ulushiga ega bo'lgan Tuproqqal'a tumani (100,0 %) va boshqa ko'pgina tumanlarni (99,9 %-98,4 %) keltirishimiz mumkin. Bu ko'rsatkich Bog'ot tumanida 97,5 % va Yangiariq tumanida 96,7 % ni tashkil etdi.



Qishloq xo'jaligi mahsulotlari



Qishloq xo'jaligi mahsulotlari — hisobot davrida fermer xo'jaliklarida, dehqon va tomorqa xo'jaliklarida va qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarda ishlab chiqarilgan dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlarining jami qiymatini belgilab, qishloq xo'jaligida yetishtirishning umumiy hajmini ifodalaydi.

2023- yilning yanvar-sentabr oylarida ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hajmi 18 554,9 mlrd so'mni yoki 2022- yilning mos davriga nisbatan 106,4 %ni, shu jumladan, dehqonchilik mahsulotlari 7380,0 mlrd so'mni (112,4 %), chorvachilik mahsulotlari 11 174,9 mlrd so'mni (102,5 %) tashkil qildi.



Qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish hajmida dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlarining ulushi



Dehqonchilik
mahsulotlari




Chorvachilik
mahsulotlari

39,8 %

60,2 %



QISHLOQ XO'JALIGI MAHSULOTLARI




Xorazm viloyati
2023- yil yanvar-sentabr



18554,9
mlrd so'm



Qishloq, o'rmon va baliqchilik
xo'jaligining umumiyligi
hajmdagi ulushi, % da




Viloyatda jami yetishtirilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari tarkibida eng katta ulush Urganch (12,4 %), Qo'shko'pir (10,5 %) va Bog'ot (10,0 %) tumanlariga to'g'ri keldi.

Ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari o'sish sur'atini hududlar kesimida tahvil etar ekanmiz, yuqori o'sish sur'atlari Tuproqqal'a (115,1 %), Gurlan (111,8 %), Yangibozor (109,5 %) va Qo'shko'pir (109,1 %) tumanlarida qayd etildi.



Ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari
hajmining hududlar kesimida taqsimlanishi, %da



Dehqonchilik mahsulotlari ishlab
chiqarishda yuqori ulushga ega
hududlar

Chorvachilik mahsulotlari ishlab
chiqarishda yuqori ulushga ega
hududlar

01 ▶ Bog'ot

Urganch ◀ 01

02 ▶ Urganch

Qo'shko'pir ◀ 02

03 ▶ Xonqa

Hazorasp ◀ 03



Ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarining xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi, %da



Xo'jalik toifalari bo'yicha tahlillar qishloq xo'jaligi mahsulotlari umumiy hajmining 72,6 % – dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 22,8 % – fermer xo'jaliklariga, 4,6 % – qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri kelishini ko'rsatmoqda.

Qishloq xo'jaligi mahsulotlari ulushining hududlar bo'yicha xo'jalik toifalari kesimida taqsimlanishi tahlil qilinganda, eng yuqori ko'rsatkichlar barcha hududlarda dehqon va tomorqa xo'jaliklariga to'g'ri kelishi kuzatildi.




Ma'lumot uchun:

Asosiy turdag'i qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirishda dehqon (shaxsiy yordamchisi) xo'jaliklarining ulushi quyidagicha:

- ✓ Sog'ib olingan sut — 94,8 %
- ✓ Go'sht (tirik vaznda) — 87,9 %
- ✓ Qirqib olingan jun — 87,8 %
- ✓ Sabzavotlar — 85,8 %
- ✓ Tuxum — 72,3 %



Ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarining
hududlar bo'yicha xo'jalik toifalari
kesimida taqsimlanishi, %da



2023- yilning yanvar-sentabr oylari yakuniga ko'ra, ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari tarkibidagi fermer xo'jaliklarining ulushi bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich Yangibozor tumanida (32,4 %), dehqon va tomorqa xo'jaliklarining eng yuqori ulushi Urganch shahrida (98,4 %), qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarning eng yuqori ulushi Qo'shko'pir tumanida (14,3 %) qayd etildi.




Fermer xo'jaliklarining qishloq xo'jaligi mahsuloti tarkibidagi ulushi bo'yicha eng kam ko'satkich Bog'ot tumanida (11,0 %), dehqon va tomorqa xo'jaliklarining eng kam ulushi Qo'shko'pir tumanida (69,5 %), qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarning eng kam ulushi Urganch shahrida (0,8 %) kuzatildi.




Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarishda xo'jalik toifalarining ulushi

Dehqonchilik mahsulotlari



Chorvachilik mahsulotlari



Fermer
xo'jaliklari


Dehqon
(shaxsiy yordamchi)
xo'jaliklari

Qishloq xo'jaligi
faoliyatini amalga
oshiruvchi
tashkilotlar



Dehqonchilik mahsulotlari

Viloyatda jami yetishtirilgan dehqonchilik mahsulotlari tarkibida eng katta ulush Bog'ot (11,9 %), Urganch (10,9 %), Xonqa (10,9 %) tumanlariga to'g'ri keldi.




Qishloq xo'jaligining
umumiylajmdagi ulushi,
% da



Ishlab chiqarilgan dehqonchilik mahsulotlari o'sish sur'atini hududlar kesimida tahlil etar ekanmiz, yuqori o'sish sur'atlari Tuproqqal'a (137,1 %), Gurlan (129,2%) va Yangibozor (120,9%) tumanlarida qayd etilgani kuzatiladi.




Jami don



Xo'jalik toifalari orasida jami don yetishtirishning eng katta hajmi 260600 tonna yoki umumiy yetishtirish hajmidan 71,7 % i fermer xo'jaliklarida qayd etildi.

2022- yilga nisbatan ko'rsatib o'tilgan davrlarda, fermer xo'jaliklarida 8,6 %, dehqon va tomorqa xo'jaliklarida 0,4 % va qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarda 20,0 % o'sish qayd etildi.

Hududlar bo'yicha jami don yetishtirish



Hududlar o'tasida jami don yetishtirish tarkibining asosiy qismini Gurlan va Xonqa tumanlari egallamoqda, ularning ulushi 11,7 % ga teng bo'ldi. Shuningdek, yuqori ulush Shovot (11,1 %) va Urganch (10,8 %) tumanlarida qayd etildi.

Past ko'rsatkichlar Urganch shahrida (0,1 %) va Tuproqqa'l'a tumanida (3,2 %) kuzatildi. Yuqori o'sish sur'atlari Qo'shko'pir (109,3), Urganch (109,1 %), Shovot (108,3 %), Yangibozor (107,8 %) va Gurlan (107,7 %) tumanlarida qayd etildi.




Bug'doy



Xo'jalik toifalari orasida bug'doy yetishtirishning eng katta hajmi 214367 tonna yoki umumiy yetishtirish hajmidan 74,7 %i fermer xo'jaliklarida qayd etildi.

2022- yilga nisbatan ko'rsatib o'tilgan davrlarda, fermer xo'jaliklarida 9,2 % va qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarda 19,2 % o'sish qayd etildi.

Hududlar bo'yicha bug'doy yetishtirish



Hududlar o'rtaida bug'doy yetishtirish tarkibining asosiy qismini Shovot va Qo'shko'pir tumanlari egallamoqda, ularning ulushi 12,0 % va 11,6 %ga teng bo'ldi. Shuningdek, yuqori ulush Xonqa (11,5 %) va Urganch (11,2 %) tumanlarida qayd etildi.

Past ko'rsatkichlar Urganch shahri (0,1 %) va Tuproqqa'a tumanida (2,6 %) kuzatildi.

Yuqori o'sish sur'atlari Xonqa (109,5 %), Shovot (109,1 %) va Qo'shko'pir (109,0 %) tumanlarida qayd etildi.




Kartoshka



Xo'jalik toifalari orasida kartoshka yetishtirishning eng katta hajmi 97626 tonna yoki umumiy yetishtirish hajmidan 75,2 %i dehqon va tomorqa xo'jaliklarida qayd etildi.

2022- yilga nisbatan ko'rsatib o'tilgan davrlarda fermer xo'jaliklarida 2,4 %, dehqon va tomorqa xo'jaliklarida 0,7 % va qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarda 30,0 % o'sish qayd etildi.

Hududlar bo'yicha kartoshka yetishtirish



Hududlar o'rtasida kartoshka yetishtirish tarkibining asosiy qismini Urganch va Xonqa tumanlari egallamoqda, ularning ulushi 15,1 % va 13,3 %ga teng bo'ldi. Shuningdek, yuqori ulush Shovot (12,2 %) tumanlarida qayd etildi.

Past ko'rsatkichlar Urganch shahri (0,7 %) va Tuproqqa'l'a tumanida (1,5 %) kuzatildi.

Yuqori o'sish sur'atlari Urganch shahrida (103,9 %) Tuproqqa'l'a (103,6 %), Shovot (103,4 %) va Bog'ot (103,2 %) tumanlarida qayd etildi.




Sabzavotlar



Xo'jalik toifalari orasida sabzavotlar yetishtirishning eng katta hajmi 350868 tonna yoki umumiy yetishtirish hajmidan 85,8 %i dehqon va tomorqa xo'jaliklarida qayd etildi.

2022- yilga nisbatan ko'rsatib o'tilgan davrlarda fermer xo'jaliklarida 1,3 %, dehqon va tomorqa xo'jaliklarida 0,6 % va qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarda 24,4 % o'sish qayd etildi.

Hududlar bo'yicha sabzavotlar yetishtirish




Hududlar o'tasida sabzavot yetishtirish tarkibining asosiy qismini Bog'ot va Urganch tumanlari egallamoqda, ularning ulushi 14,6 % va 12,0 %ga teng bo'ldi. Shuningdek, yuqori ulush Xonqa (11,7 %) va Xiva (11,4 %) tumanlarida qayd etildi.

Past ko'rsatkichlar Urganch shahri (0,3 %) va Tuproqqa'l'a tumani (0,9 %) kuzatildi.

Yuqori o'sish sur'atlari Tuproqqa'l'a tumani (116,5 %), Urganch (112,3 %) va Xiva (107,0 %) shaharlarda qayd etildi.




Poliz



Xo'jalik toifalari orasida poliz mahsulotlari yetishtirishning eng katta hajmi 55910 tonna yoki umumiy yetishtirish hajmidan 50,8 %i fermer xo'jaliklarida qayd etildi.

2022- yilga nisbatan ko'rsatib o'tilgan davrlarda fermer xo'jaliklarida 10,5 % va qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarda 7,2 % o'sish, dehqon va tomorqa xo'jaliklarida 3,7 % kamayish qayd etildi.

Hududlar bo'yicha poliz mahsulotlari yetishtirish



Hududlar o'rtaida poliz mahsulotlari yetishtirish tarkibining asosiy qismini Urganch va Yangibozor tumanlari egallamoqda, ularning ulushi 15,3 % va 13,5 %ga teng bo'ldi. Shuningdek, yuqori ulush Xiva (12,9 %) va Qo'shko'pir (12,4 %) tumanida qayd etildi.

Past ko'rsatkichlar Urganch shahri (0,3 %) va Tuproqqa'l'a tumanida (1,7 %) kuzatildi. Yuqori o'sish sur'atlari Shovot (110,3 %), Bog'ot (105,1 %) va Gurlan (105,1 %) tumanlarida qayd etildi.




Meva va rezavorlar



Xo'jalik toifalari orasida meva va rezavorlar yetishtirishning eng katta hajmi 82042 tonna yoki umumiy yetishtirish hajmidan 62,4 %i dehqon va tomorqa xo'jaliklarida qayd etildi.

2022- yilga nisbatan ko'rsatib o'tilgan davrlarda, fermer xo'jaliklarida 5,4 % va qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarda 7,9 % o'sish, dehqon va tomorqa xo'jaliklarida 1,3 % kamayish qayd etildi.

Hududlar bo'yicha meva va rezavorlar yetishtirish



Hududlar o'tasida meva va rezavorlar yetishtirish tarkibining asosiy qismini Xiva va Bog'ot tumanlari egallamoqda, ularning ulushi 12,5 % va 12,3 %ga teng bo'ldi. Shuningdek, yuqori ulush Shovot (10,9 %) va Yangiariq (10,7 %) tumanlarida qayd etildi.

Past ko'rsatkichlar Urganch shahri (0,2 %) va Tuproqqa'l'a tumanida (1,2 %) kuzatildi. Yuqori o'sish sur'atlari Bog'ot (102,5 %) va Hazorasp (102,0 %) tumanlarida qayd etildi.




Uzum



Xo'jalik toifalari orasida uzum yetishtirishning eng katta hajmi 23748 tonna yoki umumi yetishtirish hajmidan 72,2 %i dehqon va tomorqa xo'jaliklarida qayd etildi.

2022- yilga nisbatan ko'rsatib o'tilgan davrlarda, fermer xo'jaliklarida 3,7 % va qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarda 9,0 % o'sish, dehqon va tomorqa xo'jaliklarida 11,3 % kamayish qayd etildi.

Hududlar bo'yicha uzum yetishtirish




Hududlar o'tasida uzum yetishtirish tarkibining asosiy qismini Bog'ot va Urganch tumanlari egallamoqda, ularning ulushi 35,7 % va 12,9 %ga teng bo'ldi. Shuningdek, yuqori ulush Yangibozor (11,1 %) tumanida qayd etildi.

Past ko'rsatkichlar Urganch shahri (0,1 %) va Tuproqqa'l'a tumanida (1,9 %) kuzatildi.



Chorvachilik mahsulotlari



Xorazm viloyati
2023- yil yanvar-sentabr



Qishloq xo'jaligining umumiyligi
hajmidagi ulushi, % da



Viloyatda jami yetishtirilgan chorvachilik mahsulotlari tarkibida eng katta ulush Urganch (13,4 %), Qo'shko'pir (10,8 %), Hazorasp (10,6 %) va Gurlan (9,4 %) tumanlariga to'g'ri keldi.

Yetishtirilgan chorvachilik mahsulotlari o'sish sur'atini hududlar kesimida tahlil etar ekanmiz, yuqori o'sish sur'atlari Qo'shko'pir (110,1 %) tumanida qayd etildi.



**2023- yil yanvar-sentabr oylarida yetishtirilgan asosiy
turdag'i chorvachilik mahsulotlari**


| | <i>Barcha toifadagi xo'jaliklar</i> | <i>shu jumladan:</i> | | | | | | | |
|--------------------------|---|--------------------------------|------------------------------------|---|------------------------------------|---|------------------------------------|----------------|------------------------------------|
| | | <i>fermer xo'jaliklari</i> | | <i>dehqon va tomorqa xo'jaliklari</i> | | <i>qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar</i> | | | |
| | | <i>tonna</i> | <i>o'sish sur'ati % da</i> | <i>tonna</i> | <i>o'sish sur'ati % da</i> | <i>tonna</i> | <i>o'sish sur'ati % da</i> | <i>tonna ,</i> | <i>o'sish sur'ati % da</i> |
| Go'sht (tirik vaznda) | 141 316 | 106,1 | 4 690 | 104,2 | 124 147 | 100,1 | 12 479 | 2,7m | |
| Sut | 919 587 | 102,2 | 43 479 | 103,9 | 871 533 | 102,1 | 4 575 | 114,5 | |
| Tuxum mln, dona | 342 459 | 96,1 | 38 561 | 109,8 | 276 505 | 101,4 | 67 393 | 74,7 | |
| Baliq | 14 056,9 | 101,1 | 10 159,4 | 100,1 | 728 | 100,7 | 3169,5 | 104,6 | |

2023- yil yanvar-sentabr oylarida yetishtirilgan go'sht to'g'risidagi ma'lumotlarni xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil qilar ekanmiz, go'sht yetishtirishning 3,3 %i fermer xo'jaliklari hissasiga, 87,9 %i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 8,8 %i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri kelishini qayd etib o'tish lozim, shunga mos ravishda sut yetishtirishning 4,7 %i fermer xo'jaliklariga, 94,8 %i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 0,5 %i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keladi, shuningdek, olingan tuxumning 10,1 %i fermer xo'jaliklariga, 72,3 %i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 17,6 %i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keldi, ovlangan baliqning 72,3 %i fermer xo'jaliklariga, 5,2 %i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 22,5 %i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keldi.




Go'sht (tirik vaznda)


Hajmi, ming t.



O'sish sur'ati



Ishlab chiqarilgan mahsulotning xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi



Fermer xo'jaliklari



Dehqon va tomorqa xo'jaliklari




Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar



2023–yilning yanvar–sentabr oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan tirik vaznda 141,3 ming t. go'sht (2022–yilning yanvar–sentabriga nisbatan 6,1 % ga ko'p) ishlab chiqarildi. Go'sht ishlab chiqarish ko'rsatkichlari xo'jaliklar toifalari bo'yicha tahlil etilganda, go'sht ishlab chiqarish umumiylajmidan 87,9 %i dehqon va tomorqa xo'jaliklari hissasiga to'g'ri kelganini qayd etish zarur.




Hududlar bo'yicha go'sht (tirik vaznda) yetishtirish, tonna






Sut


Hajmi, ming t.



O'sish sur'ati



Ishlab chiqarilgan mahsulotning xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi




- Fermer xo'jaliklari
- Dehqon va tomorqa xo'jaliklari
- Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar



2023–yilning yanvar–sentabr oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan 919,6 ming t. sut (2022–yilning yanvar–sentabriga nisbatan 2,2 % ga ko'p) ishlab chiqarildi. Sut ishlab chiqarish ko'rsatkichlarini xo'jalik toifalari bo'yicha tahlili, sut ishlab chiqarish umumiy hajmidan 94,8%i dehqon va tomorqa xo'jaliklari hissasiga to'g'ri kelishini ko'rsatmoqda.




Hududlar bo'yicha sut yetishtirish, tonna






Tuxum


Hajmi, mln dona



O'sish sur'ati




Ishlab chiqarilgan mahsulotning xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi



- Fermer xo'jaliklari
- Dehqon va tomorqa xo'jaliklari
- Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar




2023–yilning yanvar–sentabr oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan 382,5 mln dona tuxum (2022–yilning yanvar–sentabr iga nisbatan 3,9 %ga kam) ishlab chiqarildi. Tuxum ishlab chiqarish ko'rsatkichlari xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil etilganda, tuxum ishlab chiqarish umumiylajmidan 72,3 %i dehqon va tomorqa xo'jaliklari hissasiga to'g'ri keldi.

**Hududlar bo'yicha tuxum yetishtirish, ming dona**




Baliq


Hajmi,tonna



O'sish sur'ati




Ishlab chiqarilgan mahsulotning xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi



- Fermer xo'jaliklari
- Dehqon va tomorqa xo'jaliklari
- Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar



2023– yilning yanvar– sentabr oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan 14 056,9 tonna (2022– yilning yanvar– sentabr iga nisbatan 1,1 %ga ko'p) baliq ovlandi. Ovlangan baliqlar xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil qilinganda, ovlangan baliq umumiyligi hajmidan 72,3 %i fermer xo'jaliklari hissasiga to'g'ri kelganini ta'kidlash lozim.

**Hududlar bo'yicha ovlangan baliqlar, tonna**



Xorazm viloyati statistika boshqarmasi



**2023- yilning 1- oktabr holatiga xo'jaliklar toifalari bo'yicha
chorva mollari va parrandalar bosh soni**


| | <i>Barcha toifadagi xo'jaliklar</i> | | <i>shu jumladan:</i> | | | | | |
|----------------------------|---|------------------------------------|------------------------|------------------------------------|-----------------------------------|------------------------------------|---|------------------------------------|
| | | | fermer xo'jaliklari | | dehqon va tomorqa xo'jaliklari | | qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar | |
| | <i>ming bosh</i> | <i>o'sish sur'ati % da</i> | <i>ming bosh</i> | <i>o'sish sur'ati % da</i> | <i>ming bosh</i> | <i>o'sish sur'ati % da</i> | <i>ming bosh</i> | <i>o'sish sur'ati % da</i> |
| Yirik shoxli qoramollar | 959,2 | 101,5 | 75,0 | 110,6 | 870,2 | 100,3 | 14,0 | 139,7 |
| shundan, sigirlar | 367,1 | 101,8 | 30,8 | 111,9 | 330,9 | 100,5 | 5,4 | 135,1 |
| Qo'y va echkilar | 488,1 | 102,5 | 83,5 | 119,3 | 380,0 | 98,1 | 24,6 | 129,6 |
| Otlar | 5,5 | 102,0 | 0,8 | 107,3 | 4,7 | 100,8 | 0,1 | 131,4 |
| Parrandalar | 6822,2 | 108,8 | 1057,4 | 125,4 | 3929,2 | 101,1 | 1835,6 | 119,2 |

2023- yilning 1- oktabr holatiga ko'ra, yirik shoxli qoramollar bosh soni to'g'risidagi ma'lumotlarni xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil qilar ekanmiz, yirik shoxli qoramollarning 7,8 %i fermer xo'jaliklari hissasiga, 90,7 %i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 1,5 %i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri kelishini qayd etib o'tish lozim, shunga mos ravishda qo'y va echkilarning umumiy sonidan 17,1 %i fermer xo'jaliklariga, 77,8 %i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 5,0 %i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keldi, shuningdek, otlarning umumiy sonidan 14,2 %i fermer xo'jaliklariga, 84,6 %i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 1,2 %i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keldi, parrandalar umumiy sonidan 15,5 %i fermer xo'jaliklariga, 57,6 %i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 26,9 %i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keldi.




Yirik shoxli qoramollar


Soni, ming bosh



O'sish sur'ati



Bosh sonining xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi



- Fermer xo'jaliklari
- Dehqon va tomorqa xo'jaliklari
- Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchitashkilotlar




2023– yilning 1– oktabr holatiga ko'ra, yirik shoxli qora mollarning umumiyligi bosh soni 959,2 mingtaga yetdi. 2022– yilning mos davri bilan solishtirilganda, barcha toifadagi xo'jaliklarda yirik shoxli qoramollar bosh soni 13,9 mingtaga (1,5 %) ko'paydi.

2023– yilning 1– oktabr holatiga ko'ra, yirik shoxli qoramollar bosh soni to'g'risidagi ma'lumotlar xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil etilganda, jami yirik shoxli qoramollarning 90,7 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga to'g'ri kelishi kuzatildi.




Hududlar bo'yicha yirik shoxli qoramollar bosh sonlari, ming bosh






Sigirlar


Soni, ming bosh



O'sish sur'ati



Bosh sonining xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi



- Fermer xo'jaliklari
- Dehqon va tomorqa xo'jaliklari
- Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar




2023– yilning 1– oktabr holatiga ko'ra, sigirlarning umumiyligi bosh soni 357,2 mingtaga yetdi. 2022– yilning mos davri bilan solishtirilganda barcha toifadagi xo'jaliklarda sigirlar bosh soni 6,4 mingtaga (1,8 %) ko'paydi.

2023– yilning 1– oktabr holatiga ko'ra, sigirlar bosh soni to'g'risidagi ma'lumotlari xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil qilinganda, jami sigirlarning 90,1 %i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga to'g'ri kelmoqda.




Sigirlar, ming bosh






Qo'y va echkilar


Soni, ming bosh



O'sish sur'ati



Bosh sonining
xo'jalik toifalari
bo'yicha taqsimlanishi



- Fermer xo'jaliklari
- Dehqon va tomorqa xo'jaliklari
- Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar




2023–yilning 1–oktabr holatiga ko'ra, qo'y va echkilarning umumiy bosh soni 488,1 mingtaga yetdi. 2022–yilning mos davri bilan solishtirilganda, barcha toifadagi xo'jaliklarda sigirlar bosh soni 11,8 mingtaga (2,5 %) ko'paydi.

2023–yilning 1–oktabr holatiga ko'ra, sigirlar bosh soni to'g'risidagi ma'lumotlar xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil qilinganda, jami sigirlarning 77,8 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga to'g'ri kelmoqda.




Qo'y va echkilar, ming bosh






Otlar


Soni, bosh



O'sish sur'ati



Bosh sonining
xo'jalik toifalari
bo'yicha taqsimlanishi



Fermer xo'jaliklari



Dehqon va tomorqa
xo'jaliklari



Qishloq xo'jaligi faoliyatini
amalga oshiruvchi
tashkilotlar




2023– yilning 1– oktabr holatiga ko'ra, otlarning umumiyligi bosh soni 5098 taga yetdi. 2022– yilning mos davri bilan solishtirilganda, barcha toifadagi xo'jaliklarda otlar bosh soni 108 boshga (2,0 %) ko'paydi.

2023– yilning 1– oktabr holatiga ko'ra, otlar bosh soni to'g'risidagi ma'lumotlar xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil qilinganda, jami otlarning 84,6 %i dehqon va tomorqa xo'jaliklari hissasiga to'g'ri kelishini ta'kidlash lozim.




Otlar, bosh






Parrandalar


Soni, ming bosh



O'sish sur'ati



Bosh sonining xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi



- Fermer xo'jaliklari
- Dehqon va tomorqa xo'jaliklari
- Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar




2023– yilning 1– oktabr holatiga ko'ra, parrandalarning umumiy bosh soni 6 822,2 mingtaga yetdi. 2022– yilning mos davri bilan solishtirilganda ,barcha toifadagi xo'jaliklarda parrandalar bosh soni 550,6 mingtaga (8,8%) ko'paydi.

2023– yilning 1– oktabr holatiga ko'ra, parrandalar bosh soni to'g'risidagi ma'lumotlarni xo'jaliklar toifalari bo'yicha tahlil etilganda, jami parrandalarning 57,6 %i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga to'g'ri kelishini qayd etish lozim.



Parrandalar, ming bosh



Qishloq xo'jaligi va ekologiya
statistikasi bo'limi

• 62-224-64-96